# TA`LIM TEXNOLOGIYALARIDA ARALASH TA`LIMNING O`RNI

**Diyora G‘aniyeva Ismatulla qizi**

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Yoshlar bilan ishlash,ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i

**Annotatsiya:** Ta`lim texnologiyalarini qo`llash o`qitish samaradorligini belgilab beruvchi dastlabki omil hisoblanadi. Ushbu tezisda aralash ta`lim orqali pedagogik faoliyatni olib borishning ijobiy jihatlari muhokama etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Pedagogika, aralash ta`lim, metod, o`qitish, ilm-fan.

## KIRISH

Talim jarayonida tobora ko‘proq axborot- kommunikatsiya texnologiyalari namyon bo‘lmoqda. Bu jarayon ayniqsa pandemiya sharoitida ta’lim tizimida yanada muhimroq ahmiyat kasb etmoqda, sababi ta’lim - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadigan sohalardan hisoblanadi. Bu esa, ta’lim olishga o‘rganish sifatini oshirish uchun yangilik va yangi yondashuvlarga ehtiyoj borligini bildiradi. An’anaviy ta’lim tizimi, o‘qitish metodikalari yuzasidan yetarlicha tadqiqotlar olib borilgan hamda ular muttasil ravishda, jamiyat taraqqiyotiga uyg‘un holda rivojlanib bormoqda. Masofaviy ta’lim jarayoni esa, Respublikamizda ommaviylashmagan, qisman qo‘llanilib kelingan bo‘lib, uning joriy etilish mexanizmi borasida amalga oshiriladigan ishlar talaygina. Masofaviy ta’lim jarayonining muhim omillardan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, unda ta’lim oluvchilarga istalgan joyda va istalgan vaqtda bilim olishlari uchun turli usul va texnologiyalardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bu ayni paytda hududlarga axborot uzatishdagi qiyinchiliklar, internet tarmog‘ining talab darajasida emasligi ham bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

## ASOSIY QISM

Dastlab masofadan o‘qitish televizor, radio, video lentalar, xatlar va SD-ROMlardan foydalangan holda olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik masofaviy ta’limning yangi - elektron qurilmalardan foydalanish modeli yuzaga keldi. Klark va Mayerlarning fikriga ko‘ra, elektron ta’lim bu internet yoki shunchaki kompyuter yordamida amalga oshiriladigan o‘quv faoliyatidir[4]. Ammo elektron ta’limning boshqa «resurslar va xizmatlarga osonroq kirish shuningdek, masofadan turib almashish va hamkorlik orqali ta’lim sifatini oshirish uchun yangi multimedia texnologiyalari va internetdan foydalanishdir», degan ta’riflar ham mavjud.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Elektron ta’lim o‘qituvchilar hamda o‘quvchilar uchun qulay o‘quv muhitini yaratishi bilan birga uning ma’lum kamchiliklari ham mavjud. Masalan, elektron ta’lim tizimlarida samarali ijtimoiylashuv jarayonini ta’minlash yetarlicha qiyinchilik tug‘diradi. Elektron ta’limdan farqli o‘laroq, mashg‘ulotlarni an’anaviy, yuzma-yuz tarzda olib borish hali ham o‘quvchilar uchun kulay ijtimoiylashuv muhitini yaratish uchun eng yaxshi model hisoblanadi. Elektron ta’limning zaif tomonlari an’anaviy ta’lim tizimlarining afzalliklarini o‘z ichiga oladigan yanada samarali ta’lim yondashuvlari: ta’lim iste’molchilarining ma’lumotlar bazasi

imkoniyatlarini oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishining ommalashuvi, o‘qitishning zamonaviylashuvi kabi jihatlar tadqiq qilina boshladi. Mazkur ta’lim tadqiqotlarida ko‘plab innovatsion uslublar va yondashuvlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan. Bularga Blum - fikrlash jarayonlari ierarxiyasi, Kellerning individullashtirilgan ta’lim tizimi nazariyalarini qo‘llash, Gagnening vosita va fikrlash qobiliyatlarining ierarxik tuzilishi haqidagi, Merrillning komponentlarni xaritalash nazariyasi, Klark va Gerining multimedia o‘qitishning asosiy tamoyillarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Uyg‘unlashgan yondashuv o‘quvchilar onlayn ta’lim texnologiyalaridan foydalanishlari va o‘qituvchilar yoki boshqa o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishlari uchun samarali o‘quv muhitini ta’minlashga, talabalarning bilim darajasini oshirishi va o‘qitish vaqtini optimallashtirishga olib keladi. Aralash ta’lim hamkorlikning dasturiy ta’minoti, veb-ga asoslangan turli xil yetkazib berish usullarini birlashtirgan yechim sifatida namoyon bo‘ladi.O‘qitishning turli uslublari va texnologiyalarining kombinatsiyasidan foydalangan holda, aralash ta’lim talabalarning ilmiy kompetentligini ta’minlash barobarida:

- ta’limning uyg‘unlashgan shakli umumiy ta’lim xarajatlarini kamaytirishi;
- turli xil ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalar e’tiborini kurs mavzusiga ko‘proq jalb qilishi;
- ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar va boshqa ta’lim usullarining kombinatsiyasidan foydalangan holda, o‘quvchilar istagan joylaridan o‘zlari istagan vaqtda bilim olish kabi bir qator qulayliklarga ega bo‘lishadi. Shuningdek, interfaol tadbirlar, ya’ni barcha o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ishtirok etadigan sinxron o‘quv faoliyatini, ta’lim oluvchining individual, o‘z tempida va mustaqil ravishda amalga oshiradigan o‘quv tajribasi, hamkorlikda talabalar boshqalar bilan aloqasi (elektron pochta, forum va onlayn suhbat), ularning bilimini baholash, o‘quv materiallarini saqlash va uzatishni yaxshilash kabi jihatlarini ham inobatga olish maqsadga muvofiq.

Aralash ta’limning yana bir muhim jihati bu- hodisa va jarayonlarning jonli, sinxronlashtirilgan shaklidir. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi jonli aloqani hech qanday texnologiya o‘rnini bosa olmaydi va Jon Keller nazariyasiga ko‘ra[5], jonli voqelik talabalar o‘quv motivi modelida to‘rtta elementga e’tibor qaratadi: diqqat, dolzarblik, ishonch va qoniqish.

Diqqat. Talabaning diqqatini tortish uchun turli xil texnik vosita va usullardan foydalaniladi va bu talabaning o‘quv jarayoniga jalb qilishning zaruriy sharti hisoblanadi. Chunki, o‘rganishni ularning o‘ziga xos holatlariga mos keladi, deb hisoblasalar, diqqat va e’tiborni jamlaydilar.

Dolzarblik. Mavzuning dolzarbligini ko‘rsatish uchun virtual o‘qituvchi o‘quvchilarga masalaga doir hayotiy ma’lumotlardan qanday foydalanishi mumkinligi haqida misollar yoki o‘xshashliklardan foydalanishi zarur bo‘ladi.

Ishonch. O‘quvchilar faol bo‘lishlari uchun ular o‘quv materialini o‘zlashtira olishi va qobiliyatlariga ishonishlari kerak. O‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish uchun tajribali virtual o‘qituvchi mavzu bo‘yicha talablar, zaruriy kompetensiyalarni aniqlab, o‘quvchilarga yangi ko‘nikmalarini amalda qo‘llash uchun yetarlicha vaqt beradi. Bunda talabalar faolligi ularning natijalari va o‘quv tajribalaridan mamnun bo‘lishlariga bog‘liq ekanligini hamda ular olgan bilim, ko‘nikma,malaka va kompetensiyalarini qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy topshiriqlar taqdim etilishi mumkin.

**XULOSA VA MUNOZARA**

Hozirgi kunda ta’limning ko‘plab nazariyalari mavjud va ularning hech birini ta’limning barcha muammolarini tubdan hal qiladigan, muhim deb qabul qilinishi mumkin emas. Aralash o‘rganish, ehtimol jamiyatdagi o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot va ta’limning global manzarasini hisobga olgan holda, ta’lim berishning barcha yondashuvlardan ustunlik qilishi va saqlanib qolishi mumkin bo‘lgan usullardan biridir.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son).
2. Musurmonov R., Musurmanova M. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsiyalar //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 3. – S. 777-783.
3. Raxmanova M. Q. Ta’lim jarayonida o‘quv munozaralarini tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati, ijodkorligi va faolligi //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. IV.
4. Kurbonova M. F. Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari //Xals ta’limi. – 2020. – T. 3.
5. www.ziyonet.uz